

PIRIMQUL QODIROV “YULDUZLI TUNLAR” ASARINI LINGVOPOETIK XUSUSIYATLAR

Boboyorova Dilnavoz

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Bu maqola o‘zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub tarixiy roman “Yulduzli tunlar” asaridagi bosh qahramonlar Bobur, Xonzoda begim, Hurramshoh kabi obrazlarning ko‘rsatgan qahramonliklarini har tomonlama yoritib beradi. Ushbu asar Bobur hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning taxtga o‘tirgandan to vafot etguniga qadar bo‘lgan barcha janglari, qahramonliklari, yurgizgan siyosati hamda jasoratlari haqida to‘liq ma‘lumot beruvchi roman hisoblanganligi bois bu maqola ham ko‘proq Bobur Mirzoning qahramonliklarini yoritgan. Barchamizga ma‘lumki, Bobur Mirzo ham shoh ham olim bo‘lgan. Ushbu maqola Bobur Mirzoning hayot yo‘li haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, badiiy obraz, tarixiy roman, qahramonlik, Temuriylar sulolasi, badiiy adabiyot.

ABSTRACT

This article comprehensively explains the heroism of the main characters Babur, Khanzoda Begum, and Hurramshah in the historical novel "Starry Nights" written by the Uzbek writer Pirimkul Kadirov. This work is dedicated to the life of Babur, and since it is considered a novel that provides complete information about all his battles, heroism, policies and courage from his accession to the throne until his death, this article is more Babur Illuminated the heroism of Mirza.

Keywords: image, artistic image, historical novel, heroism, Timurid dynasty, fiction.

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно описывается героизм главных героев исторического романа «Звездные ночи» узбекского писателя Пиримкула Кадырова, таких как

Бобур, Ханзода Бегим, Хуррамшах. Это произведение посвящено жизни Бабура и представляет собой роман, в котором дается полный отчет обо всех его битвах, героизме, политике и мужестве с момента восшествия на престол до самой смерти, освещающий героизм Мирзы.

Ключевые слова: образ, фантастика, исторический роман, героизм, династия Тимуридов, фантастика

ABSTRACT

This article describes in detail the heroism of the main characters of the historical novel "Starry Nights" by Uzbek writer Pirimkul Kadyrov, such as Bobur, Khanzoda Begim, Hurramshah. This work is dedicated to Babur's life and is a novel that gives a full account of all his battles, heroism, policies and courage from the time of his accession to the throne until his death. It highlighted Mirza's heroism.

Keywords: image, fiction, historical novel, heroism, Timurid dynasty, fiction

San'atning boshqa turlari kabi badiiy adabiyot ham hayotni undagi insonlarning ruhiy holati, o'y-fikrlarini aks ettiradi. Hayot hamisha insonlarning tirikchiligi, mehnat faoliyati, kurashi, his-tuyg'ulari, kechinmalaridan iborat. Adabiyotning tasvir mavzuyi, avvalambor, insondir. Inson tasviri yo'q, u ko'zda tutilmagan joyda badiiy adabiyot ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra adabiyotshunoslik ilmida markaziy o'rinni egallovchi tushuncha ham obraz qahramon tushunchasidir.

Образ - тimsol tushunchasining keng va tor ma'nolari mavjud. Keng ma'nodagi timsol tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi, tor ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Badiiy obraz esa voqelikni faqat san'atga xos usulda o'zlashtirib va o'zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham Obraz deb yuritiladi.

Образда obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy Obrazning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Obraz voqelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud obyektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy

tugal, o'zicha yetuk xususiyatlariga ega bo'ladi. Badiiy obrazni real obyekt bilan chalkashtirmaslik kerak; u shartlilik, ramziylik xususiyati bilan real voqelikdan farq qiladi va asarning ichki «illyuziyali» olamini tashkil qiladi.

Obraz voqelikning oddiy in'ikosi bo'lmay, balki uni umumlashtirib, alohida, o'tkinchi, tasodifiy hodisaning eng mohiyatli, o'zgarmas, muqim, adabiy jihatlarini ochib beradi.

“Yulduzli tunlar“ - o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub tarixiy roman. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so'z yuritiladi. Muallif mazkur roman ustida o'n yil davomida ish olib borgan., „Yulduzli tunlar“ga „Boburnoma“ hamda „Humoyunnoma“ asarlari asos bo'lgan. Bu asar dunyoga mashhur o'zbek hukmdori, atoqli shoir, o'z davrining qomusiy bilimlari bilimdoni Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag'ishlangan asar bo'lib, zamonaviy o'zbek romanchiligining yetuk namunasi hisoblanadi.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ushbu roman o'zining talabalik yillaridagi Amir Temur va Bobur Mirzo shaxslariga ixlosmandligi hosilasi ekanini aytgan.

Shunday asar borki tarixni o'zida aks ettiradi. O'zbek romanlarida tarixiy shaxslar talqinida hayotiylik, haqqoniylik asosiy mezon hisoblanadi. Asarning qay darajada tarixiy badiiy tasvirda jilovlanganligi yozuvchining mahoratiga bog'liq. Hamma tarixiy asarlar ham faqat tarixiy faktlar asoslangan bo'ladi. Ba'zilarida esa to'qima obrazlar ham ishlatiladi. Bunga sabab kitobxonning zeriktirib qo'ymaslik. O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov qayd etganidek: "Tarixiy romanda ilmiy haqiqat bilan badiiy haqiqatning munosabati g'oyat nozik va munozarali masala. Adabiyot tarixida shunday asarlar borki, ular ilmiy jihatdan asoslangan tarixiy faktlarga to'la mos keladigan hujjatlarga tayanib yozilgan...

Ayni zamonda shunday tarixiy asarlar ham borki, ularda umuman hayotiy haqiqatga tayanilmagani golda yozuvchi xayolati - fantaziyasi orqali tarixiy faktning qayta idrok etish muhim o'rin tutadi, tarixiy hodisalar, shaxslar muallif badiiy niyati asosida o'zgacha talqin etadi."

O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov 1928-yilning 25- oktabrida hozirgi Xo'jand viloyati hududidagi Kengko'l qishlog'ida Cho'pon oilasida dunyoga kelgan. Yozuvchi tarixiy romanlar yozishga juda ham qiziqqan.



Bunga dalil sifatida umri davomida yozgan bir nechta romanlarini ko'rsatish mumkin. Ular, " Yulduzli tunlar", " Avlodlar dovoni", " Ona lochin vidosi", " Shohruh va Gavharshod" kabi romanlarini kiritish mumkin. Bundan bilinadigan, Yozuvchi Temuriylar davri tarixiga ishqiboz bo'lgan.

Pirimqul Qodirov qalamiga mansub " Yulduzli tunlar "romani shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag'ishlangan. Bu roman ustida yozuvchi qariyb 10yil(1969-1978) davomida ishlagan. Bu haqida yozuvchi o'z 66 asarining kirish qismida shunday deydi: "Uni 1972-yilda ilk bor yozib nashrga topshirganimda tog'day yuk yelkamdan tushganday bo'lgan edi. Lekin mustabid tuzum tazyiqi ostida roman olti yil chop etilmay yotdi. Bir yillar davomida o'sha zalvarli yukni yana yelkamda ko'tarib yurganday bo'ldim. Qo'lyozmani ko'pgina mas'ul mutasaddilar, katta akademiklar o'qib fikr aytishdi. Chop etish masalasi Qizil imperiya markazining ruxsati bilangina hal etilishi mumkin ekan. Qo'lyozmaning satrma-satr tarjimasini Moskvada ham o'qishib, yozma taqrizlar berishdi. Xilma-xil fikr va mulohazalar changalzoridan tikanlarga tirnolib o'tdim, yo'limdan adashib ketmaslik uchun doim tarix haqiqatiga, xususan- " Boburnoma"day asl manbalarga tayandim. Olti yil davomida romanga kiritilgan yangi tahrirlarim ko'proq uning badiiy nuqsonlarini tuzatishga, tarix haqiqatini chuqurroq ochishga qaratildi".Yulduzli tunlar“ — o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub tarixiy roman.

Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so'z yuritiladi. Muallif mazkur roman ustida o'n yil davomida ish olib borgan.,„Yulduzli tunlar“ga „Boburnoma“ hamda „Humoyunnoma“ asarlari asos bo'lgan. Bu asar dunyoga mashhur o'zbek hukmdori, atoqli shoir, o'z davrining qomusiy bilimlari bilimdoni Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag'ishlangan asar bo'lib, zamonaviy o'zbek romanchiligining yetuk namunasi hisoblanadi.O'zbekiston Xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ushbu roman o'zining talabalik yillaridagi Amir Temur va Bobur Mirzo shaxslariga ixlosmandligi hosilasi ekanini aytgan. Bobur garchi bobosi Amir Temur davlatini qayta birlashtirolmagan bo'lsada Hindistonda tinch va osuda hayot tarzili davlatni tuzishga muvaffaq bo'ladi. Bu haqida ko'plab atoqli olimlar va yozuvchilar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan: Rumer Goden: “Bobur bunyod etgan davlat garchi bobolariniki singari bepoyon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o'lkani 332 yil davomida



mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi. "Yulduzli tunlar " romani 2 davrni o'z ichiga qamrab oladi. 1- davri Bobur taxtiga chiqishi bilan boshlandi. 2- davri esa Hindistonni zabt etishi hisoblanadi.

Bu ikki davrning yozuvchi mahorat bilan yoritgan. Asar faqat Bobur Mirzoga bag'ishlanmay, balki, oddiy qora xalqning kechmishlarini ham tasvirlab bera olgan. Oddiy kambag'al yigit Tohir sababli yuzaga kelgan ko'prik hodisasi tufayli dushman ko'p talofat ko'radi va sulh tuzishga majbur bo'ladi. Ne-ne beklarning qo'lidan kelmagan xaloskorlik, qalblari vatanparvarlik ruhigayo'g'rilgan tavakkalchi yigitlarning qo'lidan kelgani hammani hayratga soladi va haqiqiy qahramonlik nima ekanligini, yurtga, tug'ilib o'sgan makonga muhabbat qanday bo'lishini talab qiladigan fidoyilik bilan ko'rsatib berishadi.

Roman yozishda Pirimqul Qodirov Bobur shaxsini to'laqonli ochib berishga harakat qiladi. Asarda badiiy to'qimalar ham uchrab turadi

Masalan, Tohir keyinchalik Tohir oftobachi obrazi. "Boburnoma" asarida Tohir shaxsi haqida hech qanday ma'lumot uchramaydi, yozuvchi Tohirni o'zi yaratadi. Uni shunday ustalik bilan Bobur hayotiga olib kiradi. Dastlab Tohir va Robiya suhbatini bilan boshlangan asarda endi Tohir o'ziga munosib rol o'ynay boshlaydi. Bu orqali adib Boburning shunday do'sti bo'lishini xohlaydi. Tohir obrazi badiiy to'qimaning yuksak mahsuli desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yozuvchi uni Robiya ikkisining sevgisi orqali asarga sezdirmasdan aralashtirib yuboradi. Tohir obrazini ham shunday mukammallik bilan yaratadiki, undan chinakan insonga xos tanti fazilatlar ko'rsatib beriladi. Quva ko'prigini buzilishida ishtirok etgan Tohir keyinchalik Bobur xizmatiga o'tadi va unga xos navkarlari qatorida bo'ladi. Uning bu darajaga erishishi ham sevgisi sababli Robiyani izlab shu yerga keladi. Eng qiyin damlarda ham Boburning yonidan ajralmaydi, unga sidqidildan xizmat qiladi va sevgisiga yetishadi, Robiyani topadi. Bobur o'z qo'li bilan yozgan asar "Boburnoma" ni yurtimizga olib kelish vazifasi unga yuklatiladi. Bobur yillar davomida qancha qiyinchiliklarni boshidan o'tkizmasin doim adolat tarafida bo'lgan, to'g'ri so'z inson edi. Yozuvchi buni isbot qilish uchun podshohlik da'vosidan kechib yurgan paytlaridagi cho'pon bilan bo'lgan suhbatni keltiradi: . — Podshohimni muncha ko'p so'roqlading, biron arzing bormi? — dedi Bobur kulimsirab. Cho'pon qovoqlarini uyib: — Men uni mana shu tog'da yakkama-yakka uchratmoqchimen, — dedi. — Agar uchratsang... Ne gaping bor? Cho'pon





yigitning ko'zlari g'azab bilan qisildi: — Otam bilan akamning boshini ne qilgan, shuni so'rab bilmoqchimen. — Boshini? Bobur-a?! Sen... sen kimsan o'zing? — Chagraklardanmen! Bobur Andijon tog'larida yashaydigan chorvador turkiy qabila — chagraklarni eslab hayrat bilan so'radi: — Bu yerda ham chagraklar bormi? — Biz bu yerga O'sh tomonlardan qochib kelganmiz. Men o'shanda o'n to'rt yashar bola edim. Bobur kelib otam bilan akamning qo'ylarini, yilqilarini tortib olmoqchi bo'lgan. Cho'ponlar: «Bermaymiz!» deb g'alayon qilgan. Keyin Bobur hammasini o'ldirib, boshlarini kesib ketgan. Onam bilan borsak, o'n besh-yigirmata o'lik yotibdi. Boshlari yo'q. Tanasidan tanib olish qiyin bo'larkan. Onam dam u tanani quchoqlab yig'laydi, dam bu tanani... Bobur O'shning janubida, bundan olti yil avval Ahmad Tanbalning qonli xurjunidan lolaqizg'aldoqlar ustiga yumalab tushgan kallalarni yana ko'z oldiga keltirdi. O'shanda uni seskantirib yuborgan yoshgina yigitning kallasi va ustara tegmagan yuzi ko'z oldida qaytadan gavdalandi — Men Boburmen! — dedi. Cho'pon quloqlariga ishonmay, uning yalang oyoqlariga yana bir qaradi: — Nahotki podshoh Bobur sen bo'lsang?! — Ha, men podshoh edim! — Hozir-chi? — Hozir... toju taxt da'vosidan voz kechdim. Endi faqat shoirona hayot kechirmoqchimen. Garchi bu voqea Bobur hayotida yuz bermagan bo'lsada yozuvchi buni asar uchun o'ylab topadi. Shu voqea orqali o'quvchi ko'z o'ngida Boburning doim to'g'ri so'zlashi, har qanday holatda haqiqatdan tonmasligi namoyon bo'ladi.

Joni qil ustida turganda ham Bobur o'zidan o'zligidan tonmaydi. Shu kichik bir voqeani kiritish orqali bundan olti yil oldin bo'lib o'tgan voqeani o'quvchi yodiga soladi. Boburning eng katta orzusi bobokaloni tuzgan Temuriylar davlatini tiklash, katta bunyodkorlik ishlari qilish va ilm ahlini o'z davrasiga yig'ish edi. U o'z yurtida ishlarni qila olmadi lekin, maqsadlarini Hindistonda amalga oshirishni xohladi.

U Hindistonni egallagandan so'ng san'at, ilm ahllarini yurtga taklif qila boshlaydi. Shunday taklif orqali Xurosondan Hindistonga kelayotganlardan biri mavlono Xondamir yo'lda Ko'chkunchixon elchilariga duch keladi.

Asarda voqea shu tarzda aks etadi: Boburning qabulidan va sovg'a-salomlaridan mamnun bo'lib qaytayotgan xon elchisi Xondamirga maqtandi: — E, mavlono, biz Hindistonda ko'rgan xirmon-xirmon oltinlarni hali hech kim ko'rmagandir. Bobur mirzo quyma oltindan qilingan taxtda o'ltiribdir. Taxtning pastiga katta gilam to'shalgan ekan. Viloyat hokimlari har yili beradigan oltinlarini shu gilamning ustiga

keltirib to'kdilar. Birpasda oltindan katta xirmon ko'tarildi. Bobur shayboniyzodalarning oltinga suq odamlar ekanini bilgani uchun elchining ko'zi oldida ataylab shunday xirmon ko'targanini Xondamir ich-ichidan sezib kuldi: — Janob elchi bu xirmondan kapsan olmadilarmi? — Podshoh bizga qimmatbaho sarupolar kiydirdi. Gilam ustidagi oltindan hazrat Ko'chkinchixonga atab sovg'a berildi. Oltin tangalarni sanab ham o'ltirmadilar. Ikki yuz ellik misqolni bir kumush tosh bilan tortib berdilar — qo'ydilar. Bu voqea ham asardagi to'qimalardan biri hisoblanadi. Zero, "Boburnoma" da Xondamirning kelganligi haqida gapirib o'tiladi, lekin bunday voqeaga duch kelmaydi.

Yozuvchi Shayboniyxon va uning avlodlarini mol-u dunyoga o'ch, nafsiga qul odamlar ekanligini ochib beradi. Boburni dushmalari bilan yonma-yon qo'yib, uni farzandlariga mehribon ota, mohir sarkarda, nozikta'b shoir bo'lishi bilan birgalikda qanchalik odil va uzoqni ko'ra bilvchi podshohligini ko'rsatadi. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani XX asr o'zbek adabiyotida ulug' bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsini ochib berishda qimmatli asar hisoblanadi. Asar yozishda adib eng asosli manbaa "Boburnoma"ga suyanan bo'lsada, to'qima voqealar, obrazlar ham uchraydi. Ular asar qurilishida va Bobur shaxsini ochib berishda xizmat qiladi.

Adib asarning oxirini ham ta'sirli qahramonliklar bilan yakunlagan. Asarning oxirida Bobur o'g'li Humoyunni dardini o'ziga oladi va shu kundan boshlab Humoyun tuzala boshlaydi, ammo Boburning ahvoli kundan-kunga yomonlashib boradi. Ko'plab tabiblar Humoyunning dardiga davo topa olishmaydi va uning tuzlishi uchun eng qadrli narsa bag'ishlansagina dardiga davo topilishini takidlashganda, Bobur hech o'ylab o'tirmasdan o'glining dardini o'ziga oladi va mana shu kasallikdan vafot etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Джураева, М. А. (2020). THE CONCEPT OF A NEW HUMAN-BEING IN MODERN UZBEK STORIES. Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия гуманитарно-общественных наук, (2), 85-89.



2. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.

3. Murodilovna, O. G. (2019). The peculiarities of vazn meter in uzbek poetry of the independence period. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(2), 33-39.

4. Akhmadjonova, O. A. (2021). Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar”. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(03), 389-392.

5. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.

6. Oripova G. M., Tolibova M. T. Q. Composition Of Modern Uzbek Stories //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 03. – С. 245-249.

7. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. In Конференции.

8. Makhmidjonov, S. (2021). ARTISTIC INTERPRETATIONS OF THE EDGES OF THE HUMAN PSYCHE. Интернаука, (15-3), 75-76.